

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQINI O'STIRISH METODIKASI**Kadirova Olima**<https://doi.org/10.5281/zenodo.16916782>**Annotatsiya**

Ushbu tezisda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini oshirishda o'qish turlaridan foydalanish yoritib berilgan. Tezis davomida o'qish turlarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga to'g'ri qo'llash yuqori samaradorlikka olib kelishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: til va nutq faoliyati, muloqot kompetensiyasi, o'qish turlari, matn, tez o'qish, ravon gapirish.

Zamonaviy ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari til va nutq faoliyatini shakllantirish, ularning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish – pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, o'qish turlaridan maqsadga muvofiq foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligi, tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini turli o'qish turlari (ichida o'qish, ovoz chiqarib o'qish, ifodali o'qish, rolda o'qish, tez o'qish) orqali rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. O'quvchilar matn mutolasining to'g'riligi, tezligi ongliligi va mazmunini o'zlashtirish kabi xususiyatlari bilan ilk bor boshlang'ich sinf o'qish darsligida duch keladi [1]. O'quvchilarni qiziqtirish va samara jihatdan o'qishning quyidagi turlarini darslarda ko'p qo'llash foyda keltiradi.

Ichki o'qish – bu matnni ovoz chiqarib emas, balki ichki nutq orqali anglab, idrok etish jarayonidir. Bu o'quvchining tafakkur, e'tibor, xotira va tasavvur kabi kognitiv faoliyatlari orqali amalga oshadi. Ichki o'qish fikrni to'liq anglash, tahliliy fikrlashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ichki o'qish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Ovoz chiqarib o'qish orqali o'quvchi tovush-harf birikmalarini yaxshi egallab oladi.
2. Keyinchalik, matnni ichki nutq yordamida (ya'ni, ichida) tushunib o'qish bosqichiga o'tiladi.
3. Bu bosqichda o'quvchi nafaqat o'qiydi, balki matnni tahlil qilish, xulosa chiqarish, muallif fikrini anglashga intiladi.

L.S. Vygotskiy fikricha, ichki nutq — bu tashqi nutqning ichki shakli bo'lib, bola tafakkurining chuqurlashishiga xizmat qiladi. Ichki o'qish faol fikrlashni talab qiladi, shuning uchun bu jarayon bolalarning tafakkur tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchida o'qilgan matn ustida “ichki suhbat” olib borish qobiliyati shakllanishi kerak.

Boshlang'ich sinfda ichki o'qishni rivojlantirishga matn ustida savol-javoblar tashkil qilish (o'quvchining matn mazmuni haqida o'ylashiga yordam beradi), o'qilgan matnni hayolda tasavvur qilish topshiriqlari (tasviriyl fikrlashni rivojlantiradi). Ichida o'qish — o'quvchining mustaqil fikrlashi va xotirasini faollashtiradi, u shoshilmasdan, hotirjam ravishda o'z o'qishini boshqaradi. Ovoz chiqarib o'qish esa to'g'ri talaffuz, ravon va aniq gapirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunday o'qish o'quvchining o'z ovozi eshitish orqali matnni eslab qolish darajasini oshiradi. Ifodali o'qish esa tinish belgilariga e'tibor qaratgan holda ohang, urg'u, pauza va emotsiyalarni to'g'ri qo'llashni talab qiladi. Bu esa estetik did, badiiy tafakkur va tinglovchi bilan muloqot o'rnatish malakasini rivojlantiradi.

Rolda o'qish – dramatizatsiya elementlarini o'z ichiga olgan holda diologli matnlar ustida ishlashni tashkil etadi. Bu usul orqali o'quvchida ijodiy yondashuv, nutq erkinligi va sahnaviy madaniyat shakllanadi. Masalan, “Bo'lari va pashsha”, “Aqli samolyot” kabi matnlar asosida

sahna ko'rinishlari uyushtirish orqali o'quvchilar faol ishtirok etadi, ularning emotsional nutqi va jamoaviy ijodkorligi yuksaladi. Tez o'qish esa e'tibor, matnni tez tahlil qilish, asosiy g'oyani ajratish, fikrni tezda anglash va izchil ifoda qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez o'qish ko'nikmasi o'qish darsiga qiziqishni oshiradi. Matn bo'laklari bo'yicha vaqt chegarasi qo'yish, savollarga tayyorlanish orqali o'qishni qiziqarli va jonli o'tkazish tavsiya etiladi. O'quvchilar vaqt chegarasidan kundan kunga o'qigan so'zlar soni ortishini bilgandan so'ng yanada ko'p o'qishga qiziqadi. O'qituvchi o'quvchilarni ong bilan o'qiyotganini bilish uchun tushunishni tekshirish o'tkaziladi. Har bir bo'limdan keyin savollar beriladi. Haftalik mashqlar bilan boshlanib, har oy interaktiv baholash orqali natijani tahlil qilish ijobiy natija beradi. O'quvchidan afaqat tez o'qish, balki matnni tushunish, e'tibor va xotira bilan bog'liq holda o'qish zarur. Agar mavjud bo'lsa, vaqtni kuzatuvchi mobil ilovalar yoki qurilmalar yordamidan ham foydalanish mumkin.

Shu asosda, boshlang'ich ta'limda o'qish turlarini integratsiyalashgan holda qo'llash, metodik yondashuvlarni takomillashtirish, darslarni interfaol, didaktik va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (masalan, matnga mos rasm, video, audio, animatsiyalar) foydalanish o'quvchilarni dars jarayoniga chuqur jalb etadi, matnni yaxshiroq tushunish va eslab qolishlariga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi matnni o'qib tushunishi uchun amaliy yordam bo'ladi [2].

O'quvchi ichida o'qiganda shoshilmaydi, uyalmaydi, qo'rqmaydi va hotirjam bo'ladi. Bu esa ravon o'qishni o'rganishga yordam beradi. Ovoz chiqarib o'qiganda esa to'g'ri va ravon gapirish rivojlanadi. O'z ovozi quloqlari bilan eshitish orqali o'qiyotgan so'zlari esida qoladi. Ifodali o'qishda o'quvchi adashmasdan, to'xtamasdan vergullarga e'tibor berib o'qiy olish texnikasini rivojlantiradi. Rolga kirib o'qishda o'qish darsliklarida berilgan diologli matnlarda qo'llab, o'quvchini darsga qiziqtirish hamda sahna tomoshalari ("Bolari va pashsha", "Aqli sichqoncha") tashkil qilib o'quvchilarda nutq ravonligini oshirish mumkin. Bundan tashqari axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotgan bir jarayonda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi, yangilik yaratish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishi juda muhim. O'qish turlari bilan ishlayotganda AKT dan foydalanish (matn mazmuniga mos rasm, video yoki ayni matn audio shaklida animatsion qoyib berilsa) o'quvchilar yodida qoladi [3].

Tadqiqotda kuzatuv, diagnostik testlar, suhbat, hamda o'quv jarayonidagi eksperimentdan foydalanildi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, matnlarni ovoz chiqarib ifodali o'qish o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi, rolda o'qish esa ularning emotsional nutqini faollashtirib, sahnaviy va ijodiy tafakkurini uyg'otadi. Tez o'qish esa e'tibor va tez anglash ko'nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qish turlarining tizimli va bosqichma-bosqich qo'llanilishi o'quvchilarda matnni anglash, tahlil qilish, qayta hikoya qilish, og'zaki va yozma nutqda fikrni mantiqan bayon etish ko'nikmalarini samarali tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu asosda, boshlang'ich ta'limda o'qish turlarini integratsiyalashgan holda qo'llash, bu boradagi metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarur deb hisoblanadi.

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Meretgeldiyeva Aygul "Boshlang'ich sinflarda o'qish turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari" www.in-academy.uz.
2. Avazova Durdona "Boshlang'ich sinflarda badiiy matnlar ustida ishlashda PIRLS topshiriqlaridan foydalanishni takomillashtirishning ijobiy ahamiyati".
3. Abrorxonova Kamolaxon, Bo'riyeva Shaxnoza "Boshlang'ich sinf o'qituvchisining darsda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mazmuni" 2023-yil 2023-yil.

